



Xizmatlar sohasi

Yanvar-mart 2019 Yil

Raq'amlar:

- 2019 yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2903,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'shish sur'ati 147,2 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1000,2 ming so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2019 yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2903,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,3%), transport xizmatlari (26,0%), moliyaviy xizmatlar (13,1%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,4%) tashkil etadi.


2019 yil yanvar-mart oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2019 yil yanvar-mart oyi uchun)**

	mlrd. so'm	2019 yil yanvar- fevral oyiga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	2903,4	108,7	100,0
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	70,8	110,2	2,4
moliyaviy xizmatlar	378,9	147,2	13,1
transport xizmatlari	755,8	101,0	26,0
shu jumladan: avtotransport xizmati	727,0	101,4	25,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	132,2	105,5	4,6
savdo xizmatlari	938,4	104,0	32,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	100,6	100,1	3,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	76,8	117,4	2,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	48,5	115,6	1,7
ijara xizmatlari	92,2	102,1	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	67,7	104,3	2,3
shaxsiy xizmatlar	81,6	100,4	2,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	66,7	137,9	2,3
boshqa xizmatlar	93,2	105,1	3,2


**2019 yil yanvar-mart oyida alohida xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd.sum**



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda o'sish sur'ati transport xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2019yil yanvar-mart oylariga nisbatan 74.2 mlrd.so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga savdo xizmatlari (148.2 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (128.2 mlrd.so'm), oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (137,9%) Moliyaviy xizmatlar (147,2%) sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (115,6%), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (105,5%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Eng past o'sish sur'atlari esa Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,1%), Shaxsiy xizmatlar (100,4%), tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (86,1%) etakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi. Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 938,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,1% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 7,5 % ni tashkil qiladi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2019 yil yanvar-mart oylariga ga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2019 yil yanvar-mart oylariga ga nisbatan % da
Toshkent viloyati	2903,4	108,7	100,0	1000,2	107,3
shaharlar:					
Nurafshon	523,7	134,2	18,0	10 842,0	132,5
Olmaliq	180,9	103,0	6,2	1 398,9	101,6
Angren	135,2	105,3	4,7	726,5	104,0
Bekobod	119,0	104,9	4,1	1261,0	103,5
Chirchiq	199,2	103,2	6,9	1 277,8	102,4
Ohangaron	44,8	103,6	1,5	1 209,6	102,2
Yangiyo'l	116,9	103,8	4,0	1 958,7	103,1
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	73,6	103,9	2,5	710,8	102,5
Ohangaron	45,4	100,8	1,6	480,6	99,4
Bekobod	67,9	102,4	2,3	437,7	100,8
Bo'stonliq	133,6	105,3	4,6	798,0	104,3
Bo'ka	69,6	103,4	2,4	561,9	101,6
Zangiota	224,8	104,0	7,7	1 152,3	102,9

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
Qibray	259,0	105,9	8,9	1308,5	104,5
Quyichirchiq	44,0	103,9	1,5	413,4	102,6
Parkent	102,8	105,2	3,5	675,0	103,3
Piskent	36,6	101,8	1,3	367,7	100,5
Toshkent	137,4	106,6	4,7	772,2	105,1
O‘rtachirchiq	97,3	104,1	3,4	662,0	102,4
Chinoz	86,4	108,6	3,0	656,1	107,0
Yuqorichirchiq	86,4	105,8	3,0	648,4	104,3
Yangiyo‘l	119,2	101,2	4,1	575,9	99,6

Hududlar o‘rtasida eng yuqori o‘shish sur‘atlari Nurafshon (134,2%), Angren shaharlari (105,3%), Qibray (105,9%), Parkent (105,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘shish sur‘atlari esa Yangiyo‘l (101,2%) Ohangaron (100,8%) tumanlariga to‘g‘ri keladi. 2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1000,2 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3% ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 10842,0 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132,5 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Piskent tumanida 367,7 ming so'mni o'sish, sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,5 %), Quyichirchiq 413,4 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,6 %), Bekobod 437,7 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,8 %), tashkil etdi.


**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi,%**




Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (18,0 %) Qibray (8,9 %) Zangiota (7,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,6 %), Quyichirchiq (1,5 %) va Pskent (1,3%), tumanlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faolyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



**2019 yil yanvar-mart oylarida
jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %**



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (99,3 %), Quyichirchiq (98,9 %) Yangiyo'l (98,8 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (6,5 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74